



**SA'DUDDIN TAFTAZONIY – COMPARATIVE ANALYSIS
OF THE WORK “MUHTASAR AL-MAONIY” AND MODERN
LINGUISTICS: STYLE, PRAGMATICS AND SPEECH
THEORY**

Ergashev Abdulvosi'

International Islamic Studies Academy of Uzbekistan
Specialization in Textual Studies and Literary Source Studies
2nd year master's student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20069428>

ARTICLE INFO

Received: 30th April 2026

Accepted: 06th May 2026

Online: 07th May 2026

KEYWORDS

Mukhtasar al-Maoni, rhetoric, pragmatics, discourse theory, stylistics, contextual semantics.

ABSTRACT

This scientific article presents a comparative analysis of the theoretical foundations of the work “Mukhtasar al-Maoniy” created by Sa'duddin Taftazoniy with important areas of modern linguistics - pragmatics, stylistics, contextual semantics and speech theory. The main purpose of the study is to determine the compatibility of concepts formed within the framework of classical Eastern rhetoric with modern linguistic theories and to scientifically substantiate the place of Taftazoniy's views in today's linguistic thinking. In conclusion, the work “Mukhtasar al-Maoniy” is evaluated not only as a mature example of classical rhetorical science, but also as a universal scientific model close to modern linguistic theories. It is scientifically substantiated that Taftazani's views serve to deeply understand the pragmatic and communicative essence of language and serve as an important theoretical basis for today's linguopragmatic, stylistic and textual studies.

**СААДУДДИН ТАФТАЗОНИ – СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ
ПРОИЗВЕДЕНИЯ «МУХТАСАР АЛЬ-МАОНИЙ» И СОВРЕМЕННОЙ
ЛИНГВИСТИКИ: СТИЛЬ, ПРАГМАТИКА И ТЕОРИЯ РЕЧИ**

Эргашев Абдулваси

Международная академия исламоведения Узбекистана
Специализация: текстология и литературоведение 2 курс магистратуры

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20069428>

ARTICLE INFO

Received: 30th April 2026

Accepted: 06th May 2026

Online: 07th May 2026

ABSTRACT

В данной научной статье представлен сравнительный анализ теоретических основ произведения «Мухтасар аль-Маоний», созданного Саадуддином Тафтазонием, с важными областями современной лингвистики – прагматикой, стилистикой, контекстуальной семантикой и теорией речи. Основная цель исследования – определить соответствие понятий, сформированных в рамках классической восточной риторики,



KEYWORDS

Мухтасар аль-Маони,
риторика, прагматика,
теория дискурса,
стилистика,
контекстная
семантика

современным лингвистическим теориям и научно обосновать место взглядов Тафтазония в современном лингвистическом мышлении.

В статье раскрывается место «Мухтасар аль-Маони» в истории риторики, подчеркивается, что это краткий, но глубокий комментарий к «Талхис аль-Мифтах» Алламы Казвини. Научно анализируется разделение риторики Тафтазани на три основные части: маоний, баян и баде', и особенно развитие подхода, основанного на принципе соответствия речи ситуации («муктазо хол»), в разделе «маоний». Этот принцип означает, что содержание речи формируется не только посредством языковых единиц, но и посредством цели говорящего, состояния слушателя и контекстуальных факторов.

В заключение, произведение «Мухтасар аль-Маоний» оценивается не только как зрелый пример классической риторической науки, но и как универсальная научная модель, близкая к современным лингвистическим теориям. Научно доказано, что взгляды Тафтазани способствуют глубокому пониманию прагматической и коммуникативной сущности языка и служат важной теоретической основой для современных лингвистопрагматических, стилистических и текстологических исследований.

SA'DUDDIN TAFTAZONIY – "MUXTASAR AL-MAONIY" ASARI VA ZAMONAVIY LINGVISTIKA: USLUB, PRAGMATIKA VA NUTQ NAZARIYASI BILAN QIYOSIY TAHLIL

Ergashev Abdulvosi'

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20069428>

ARTICLE INFO

Received: 30th April 2026

Accepted: 06th May 2026

Online: 07th May 2026

ABSTRACT

Mazkur ilmiy maqolada Sa'duddin Taftazoniy tomonidan yaratilgan "Muxtasar al-Maoniy" asarining nazariy asoslari zamonaviy lingvistikaning muhim yo'nalishlari – pragmatika, uslubshunoslik, kontekstual semantika va nutq nazariyasi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi klassik Sharq balog'at ilmi doirasida shakllangan konsepsiyalarning zamonaviy tilshunoslik nazariyalari bilan uyg'unligini aniqlash hamda Taftazoniy



KEYWORDS

Muxtasar al-Maoniy, balogʻat ilmi, pragmatika, nutq nazariyasi, uslubshunoslik, kontekstual semantika.

qarashlarining bugungi lingvistik tafakkurdagi oʻrnini ilmiy asoslashdan iborat.

Maqolada "Muxtasar al-Maoniy"ning balogʻat ilmi tarixidagi oʻrni ochib berilib, uning Alloma Qazviniyning "Talxis al-Miftah" asariga yozilgan ixcham, ammo mazmungan chuqur sharh ekani taʼkidlanadi. Taftazoniy tomonidan balogʻat ilmining maoniy, bayon va bade' kabi uch asosiy boʻlimga ajratilishi hamda ayniqsa "maoniy" boʻlimida nutqning vaziyatga mosligi ("muqtazo hol") tamoyiliga asoslangan yondashuvning ishlab chiqilgani ilmiy tahlil etiladi. Ushbu tamoyil nutq mazmunining faqat til birliklari orqali emas, balki soʻzlovchining maqsadi, tinglovchining holati va kontekstual omillar orqali shakllanishini anglatadi.

Xulosa sifatida, "Muxtasar al-Maoniy" asari nafaqat klassik balogʻat ilmining yetuk namunasi, balki zamonaviy lingvistika nazariyalariga yaqin boʻlgan universal ilmiy model sifatida baholanadi. Taftazoniy qarashlari tilning pragmatik va kommunikativ mohiyatini chuqur anglashga xizmat qilib, bugungi lingvopragmatik, stilistik va matnshunoslik tadqiqotlari uchun muhim nazariy asos boʻlib xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Arab tilshunosligi tarixida balogʻat ilmi nafaqat adabiy nutqning badiiy meʼyorlarini belgilovchi fan, balki kontekst, maqsad, nutq vaziyati kabi tushunchalar orqali tilning pragmatik mohiyatini izohlovchi nazariy asos sifatida shakllangan. Ushbu fan oʻzining eng yetuk koʻrinishiga XIV asrga kelib, Saʼduddin Taftazoniy (hij. 722-793-y.)ning "Muxtasar al-Maoniy" asarida erishdi. Balogʻat uygʻonish davrining mahsuli sifatida yaratilgan ushbu asar keyinchalik Markaziy Osiyo, Xuroson, Usmoniylar va Hindiston ilmiy maktablarida asrlar davomida yetakchi qoʻllanma boʻlib xizmat qildi.

Zamonaviy tilshunoslikning muhim yoʻnalishlari boʻlmish pragmatika, uslubshunoslik, kontekstual semantika va nutq nazariyasi XX asrda rivojlandi.

Ammo tahlil natijasida koʻramizki, Taftazoniy tomonidan balogʻat ilmi doirasida ilgari surilgan "muqtazo hol", "maqom", "qarina", "maqsad", "dalolat" kabi tushunchalar bugungi lingvistika nazariyalariga juda yaqin. Ayniqsa Gracening implikatura nazariyasi, Syorlning soʻz aktlari nazariyasi, Hellideynning funksional grammatika tizimi va Jakobsonning til funksiyalari Taftazoniy ilgari surgan tamoyillar bilan kuchli uygʻunlik kasb etadi.

Mazkur maqolada "Muxtasar al-Maoniy"dagi nazariy tamoyillar uzviy ravishda zamonaviy lingvistika ilmiy yutuqlari bilan taqqoslanadi, oʻxshashlik va farqlar aniqlanadi, Taftazoniy gʻoyalarning bugungi nutqshunoslikdagi ahamiyati yoritiladi.



Taftazoniy balog'at nazariyasi bilan zamonaviy lingvistikaning pragmatik va uslubiy yondashuvlari o'rtasidagi ilmiy bog'liqlikni yoritish, klassik konsepsiyalarning bugungi tilshunoslikdagi izlarini ochib berishdir.

“Muxtasar al-Maoniy” Alloma Qazviniyning “Talxis al-Miftah” asariga yozilgan ixcham, lekin mazmunan nihoyatda teran sharhdir. Taftazoniy balog'at ilmini uch bo'limda – maoniy, bayon, bade' – qayta tartibladi va har bir bo'limga mantiqiy-pragmatik asos berdi. Ayniqsa “maoniy” bo'limi nutqning maqsadga mosligi va vaziyatga qarab o'zgarishi tamoyiliga qurilgan.

Bu bo'limda “jumla tarkibining maqsadga ko'ra qay tartibda kelishi kerak?”, “aytilayotgan gap qaysi vaziyatda qanday ma'no beradi?”, “qarina qanday aniqlanadi?” kabi savollar asosiy ilmiy masaladir.

Taftazoniyga ko'ra, balog'atning mohiyati:

«مطابقة الكلام لمقتضى الحال» – “Nutqning vaziyat talabiga to'liq mos tushishi”.

Bu ta'rif balog'atning pragmatik asosi bo'lib, keyinchalik ilmiy an'anaga aylangan.

Taftazoniy nazariyasida “muqtazo hol” kontekstning fundamental markazi sifatida tahlil qilinadi. U “hol”ni uch omil bilan aniqlaydi:

- 1) Muxotabning holati, ya'ni ikkinchi shaxsning qanday vaziyatda ekani.
- 2) Mutakallimning maqsadi, ya'ni birinchi shaxsning ko'zlagan maqsadi.
- 3) Voqea va vaziyatning obyektiv sharoiti.

Shu asosda nutqda taqdim va ta'xir, iyjoz va itnob, xabar va insho, hamda ta'kid kabi uslubiy vositalar tanlanadi. Bu tamoyillar bugungi pragmatik

lingvistikadagi tushunchalarga mos keladi.

Taftazoniy balog'at ilmidagi ko'plab uslubiy vositalarning asl mohiyatini faqat badiiy bezak deb emas, balki nutqning vaziyatga moslashishi, ya'ni pragmatik maqsadga xizmat qilishi sifatida tushuntiradi. Uning izohiga ko'ra:

Kinoya – gapning yuzaki ma'nosi boshqa, asl maqsad yashirin bo'ladi. Bu vosita orqali so'zlovchi niyatni bilvosita bildiradi. Zamonaviy lingvistika buni “implikativ ma'no” deb ataydi.

Tashbih – o'xshatish orqali ma'noni kuchaytirish, ta'sirni oshirish vositasidir. U faqat badiiy go'zallik emas, balki tinglovchida kerakli taassurotni uyg'otishga qaratilgan kommunikativ strategiyadir.

Iyjoz – oz so'z bilan ko'p ma'no yetkazishdir. Bu “matn tejankorligi” (text economy) tamoyiliga mos keladi: ortiqcha so'z ishlatmasdan maqsadga erishish.

Taqdim va ta'xir – gap tarkibidagi so'zlarning tartibini o'zgartirish orqali ma'noni kuchaytirish, e'tiborni markazga yo'naltirish yoki axborot oqimini boshqarishdir.

Shu sababli Taftazoniyning qarashlari balog'atni faqat stilistik bezaklar majmuasi deb emas, balki kontekst, maqsad va vaziyatga mos ravishda shakllanadigan kommunikativ model sifatida ko'rsatadi.

XX asr pragmatikasida ham tilshunoslar nutq ma'nosini faqat lug'aviy so'zlar orqali emas, balki kontekst, so'zlovchining niyati, vaziyat va nutq strategiyalari orqali tushuntirishga e'tibor qaratdilar.

Grace nutqning ochiq ko'rinishidan tashqari, aytilmagan, lekin



anglashiladigan “implikatura” tushunchasini ishlab chiqdi. Ya’ni, gapning yuzaki ma’nosi bilan asl maqsad har doim bir xil bo’lavermaydi.

Syorl “so’z aktlari nazariyasi”ni yaratdi. Unga ko’ra har bir gap ma’lum bir amalni bajaradi: buyuradi, iltimos qiladi, va’da beradi, xabar beradi va hokazo.

Levinson esa pragmatikani kontekst bilan bog’lab, ma’no faqat so’zlarning lug’aviy ma’nosida emas, balki u ishlatilgan holatda to’laqonli tushunilishini isbotladi.

Bu nazariyalar aslida Taftazoniy ilgari surgan niyat-maqom-qarina tizimiga juda yaqin. Ya’ni, so’zlovchining niyati, nutqning vaziyati va kontekst belgilari ma’noni shakllantiradi.

Zamonaviy uslubshunoslikda ham shunga o’xshash yondashuvlar mavjud.

Roman Jakobson tilning olti xil funksiyasi borligini ta’kidlaydi: poetik, ma’lumot beruvchi, hissiy, buyruq beruvchi, aloqa uzilmay turishi uchun xizmat qiluvchi va tilning o’ziga oid (metalingvistik) funksiyalar.

Bu tamoyillar Taftazoniyning “nutqning maqsadga mos tuzilishi” haqidagi qarashlari bilan keng uyg’unlashadi.

Hellidey “funktsional lingvistik” nazariyasida til uch vazifani bajaradi: g’oyaviy (fikrni bayon qilish), shaxslararo (so’zlovchi-tinglovchi munosabati) va matniy (gaplarning bir-biriga bog’lanishi).

Bu Taftazoniy ta’kidlagan “muqtazo hol” bilan to’la mos keladi.

Filmor o’zining “freym semantika”sida ma’noni to’g’ri anglash uchun odamda vaziyat haqidagi tayanch

tasavvur (“freym”) bo’lishi kerakligini ta’kidlaydi.

Balog’atda esa bu rolni maqom va qarina bajaradi. Ya’ni ma’no faqat so’zlarda emas, balki vaziyatda yashirin.

Shu tariqa, zamonaviy tilshunoslik bilan Sharq balog’ati o’rtasidagi umumiy jihatlar yanada ravshanlashadi:

- ikkalasi ham ma’noni kontekstga bog’lab tushuntiradi;
- ma’noni aniqlashda so’zlovchi niyati muhim omil sifatida qaraladi;
- matnning pragmatik funksiyasi doimo e’tiborda bo’ladi;
- axborotning tartibi va taqdimoti ma’no yaratishda faol rol o’ynaydi (bugungi lingvistikada “tema-rem” deb ataladi).

Grace implikaturasida gapning asl ma’nosi emas, balki aytilmagan ma’nosi kontekstdan kelib chiqadi. Taftazoniyda bu aynan “qarina” tushunchasidir.

Hallidey modelida matn maqsadga qarab shakllanadi. Taftazoniyning “husn at-ta’alluq” – iboraning vazifaga mukammal mosligi – aynan mana shu tamoyildir. Balog’at vositalari kommunikativ efekt uchun tanlanadi.

Iyjoz ↔ Textual economy (Matndagi ifodalarni ixcham, ortiqcha so’zlarsiz va samarali tarzda berish, matnning “iqtisodiy” ishlatilishi).

Taqdim-ta’xir ↔ Theme-rheme (Jumla tuzilishidagi semantik ajratma: taqdim-theme – jumlaning boshlanishi, mavzu yoki kontekst; ta’xir-rheme – jumlada aytilayotgan yangi yoki asosiy ma’lumot).

Kinoya ↔ Implication (Matn yoki gapdan bilvosita, yashirin tarzda chiqariladigan ma’no yoki xulosa; ostidagi anglatish).



Badi' san'atlari ↔ Foregrounding
(Matnda e'tiborni ma'lum jihatlarga qaratish, ularni ajratib ko'rsatish orqali o'quvchida kuchli ta'sir yaratish).

Bu o'xshashliklar Taftazoniy nazariyasining zamonaviy talqinga ochiqligini ko'rsatadi.

Taftazoniy modeli hozirda quyidagi sohalarda qo'llanmoqda:

- Qur'on tafsirida maoniy-bayon-bade' tahlili;
- Adabiy matnlarning uslubiy qatlamini aniqlash;
- Lingvopragmatik tahlilda kontekst belgilash;
- O'qituvchilik tilida kommunikativ strategiyalarni o'rganish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sa'duddin Taftazoniyning "Muxtasar al-

Maoniy"si balog'at fanini nafaqat badiiy ilohiyotning bir yo'nalishi sifatida, balki zamonaviy pragmatika, uslubshunoslik va kontekstual lingvistika nazariyalariga juda yaqin bo'lgan umumiy tilshunoslik modeli sifatida shakllantirganini ko'ramiz. Uning "muqtazo hol", "maqom", "qarina", "husn at-ta'alluq" kabi tushunchalari bugungi til nazariyalaridagi semantik-pragmatik yondashuvlarga to'la mos keladi.

Balog'at ilmi bilan zamonaviy pragmatika o'rtasidagi o'xshashliklar Taftazoniy merosining universalligini yana bir bor tasdiqlaydi. Uning asari bugungi adabiyotshunoslik, matn tahlili va lingvopragmatik tadqiqotlar uchun ham nazariy asos bo'la oladi.

References:

1. Al-Qazvinij, Muhammad ibn Abdurahmon ibn Umar. Talxis al-Miftah. – Karachi: Maktaba al-Madina, 2016.
2. Taftazoniy, Mas'ud ibn Umar. Muxtasar al-Maoniy. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010.
3. Sakkokiy, Abu Bakr Muhammad ibn Ali. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 1987.
4. Ibn Oshur, Muhammad Tohir. At-Tahrir va at-Tanvir (Muqaddimat al-Balag'a). – Tunis: Dar at-Tunisi, 1984.
5. Grice, H. P. Logic and Conversation. – New York: Academic Press, 1975.
6. Halliday, M. A. K. Introduction to Functional Grammar. – London: Edward Arnold, 1994.
7. Jakobson, Roman. Linguistics and Poetics. – Cambridge: MIT Press, 1960.
8. Levinson, Stephen C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
9. Searle, John R. Speech Acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.